

**GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASINING LAYBNITS-NEMIS TILI INSTITUTI (IDS) VA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING NEMIS TILI O'QITILADIGAN OLIY TA'LIM MUASSASALARI
O'RTASIDAGI ILMIY HAMKORLIK TO'G'RSIDA**

SHARTNOMA

Germaniya Federativ Respublikasi Mannhaym shahrida joylashgan Nemis tili instituti (IDS) ilmiy direktori, professor Henning Lobin hamda O'zbekiston Respublikasining nemis tili o'qitiladigan universitetlari, jumladan, Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori professor Muxamedov Gafurjan Isroilovich, O'zbekiston Milliy universiteti rektori professor Majidov Inomjon Urushevich, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori professor Azizov Ulug'bek Botirovich, Samarqand davlat chet tillar instituti rektori professor Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich, Buxoro davlat universiteti rektori professor Xamidov Obidjon Xafizovich, Farg'ona davlat universiteti rektori professor Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich, Namangan davlat universiteti rektori professor Turg'unov Sobithon Toshpo'latovich (keyingi matnlarda «Tomonlar» deb yuritiladi) tomonlarning o'zaro aloqalari orqali fan va ta'lim sohasida hamkorlikka zamin yaratish, professor-o'qituvchi va tadqiqotchilar almashinuvini qo'llab-quvvatlash, ilmiy yo'nalishda yaqindan aloqalar o'rnatish, ilmiy hamkorlik loyihalari rejalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish maqsadida quyidagilar bo'yicha kelishib oldilar:

§ 1. Kirish (Preambula)

- (1) Hamkorlik maqsadi hamkorlar o'rtasida tajriba almashinuvini rag'batlantirish, o'zaro til va ilmiy-tadqiqot olib borish madaniyatini tushunishni chuqurlashtirish, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash va germanistika fan sohasi tadqiqotlarini xalqaro miqyosda kengaytirishdan iborat.
- (2) Yuqoridagi maqsadlarga, xususan yosh olimlar/tadqiqotchilar almashinuvi, konferensiyalar yoki seminarlar tashkil etish va dars mashg'ulotlari, shuningdek qo'shimcha malaka oshirish tadbirlarini o'tkazish orqali erishish ko'zda tutilgan.
- (3) Ushbu maqsadlarga erishish uchun §2 da belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish kelishib olinadi.

§ 2 Hamkorlik sohalari

O'zaro hamkorlikni quyidagi sohalarda amalga oshirish rejalashtiriladi:

- (1) Tayanch doktorant va doktorantlar tadqiqot uchun IDSga tashrif buyurishadi. Ularga IDS kutubxonasida tadqiqot olib borish uchun alohida joy/o'rin beriladi va ularga ilmiy rahbar/maslahatchi tayinlanadi.
- (2) IDS xodimlari O'zbekistondagi hamkor OTMlarga ilmiy-tadqiqot yoki seminar o'tkazish maqsadida tashrif buyurishadi. Bu o'zbekistonlik yosh olimlarning mashg'ulotlardan tashqari qo'shimcha bilim olishiga xizmat qiladi.
- (3) Mehmon olim/olimalarga mezbon tashkilotning ilmiy-tadqiqot infratuzilmasidan (kutubxonalar, qo'lyozmalar to'plamlari, arxivlar, til korpusi va boshqalardan) safari davomida foydalanish imkoniyati yaratiladi.
- (4) Hamkor muassasalar a'zolari hamkorlar tomonidan o'tkaziladigan anjuman, simpozium va seminarlarda qatnashadilar. Ular ilmiy ma'ruzalar o'qish uchun safarda bo'ladilar.
- (5) Hamkor tomonlar litsenziya huquqi/qonuni doirasida o'zaro tadqiqot adabiyotlari manbalardan foydalanish va almashish imkoniyatini yaratadilar.
- (6) Hamkor tomonlar turli ilmiy mavzularda, jumladan, O'zbekistonda nemis tili variantlarini tadqiq etishda o'zaro hamkorlik qiladilar.

§ 3 Mutasaddi shaxslar

IDS va O'zbekiston oliy o'quv yurtlari o'rtasida hamkorlik masalalarini muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi mutasaddi shaxslar tayinlanadi. Bu vazifani IDS nomidan mutasaddi-kordinator sifatida professor Stefan Engelberg va O'zbekiston universitetlari nomidan dotsent Zayniddin Sanakulov (Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti) tayinlanadi.

§ 4 Moliyalashtirish

Hamkorlik doirasida tomonlarga hech qanday moliyaviy majburiyat yuklanmaydi. Tomonlarning moliyaviy imkoniyatiga qarab rejalashtirilgan chora-tadbirlar hamkor muassasalar tomonidan moliyalashtiriladi. Har bir chora-tadbirni o'tkazish bilan bog'liq masalalar alohida kelishilgan holda hal etiladi. Qoidaga ko'ra, hamkor muassasalarda ilmiy-tadqiqot bo'yicha safar xarajatlarini jo'natuvchi (mehmon) muassasa, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarni esa taklif qiluvchi (mezbon) muassasa o'z zimmasiga oladi. Ushbu chora-tadbirlarni o'tkazishda qo'shimcha (homiylar) mablag'lari jalb etilgan holda qo'llab-quvvatlanishi maqsad qilinadi.

§ 5 Hamkorlik shartnomasining kuchga kirish va amal qilish muddati

Shartnoma, hech qanday to'siqinlik yuzaga kelmasa, 2023 yil 1-yanvardan kuchga kiradi. U dastlab besh yil muddatga, ya'ni 2027-yil 31-dekabr gacha amal qiladi va u o'zaro kelishuv asosida uzaytirilishi mumkin. Shartnoma har bir hamkor taraf tomonidan tegishli chorak oxirida muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

Shartnoma nemis va o'zbek tillarida sakkiz nusxada tuziladi va imzolanadi, har bir matn bir xil mazmun/kuchga ega. Shartnoma 2023-yil 1-yanvardan boshlab barcha imzolar taqdim etilgan va har bir hamkor tomonning imzolangan nusxasi mavjud bo'lganidan keyin kuchga kirishi mumkin.

Tomonlar ushbu anglashuv memorandumiga qo'shimcha bitimlar tuzish orqali aniqlik kiritishlari mumkin. O'zgartirishlar yozma shaklda amalga oshiriladi va tegishli chora-tadbirning amal qilish muddati ko'rsatilgan holda ushbu shartnomaga ilova qilinadi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Nemis tili instituti (IDS)

29.11.2022
sana



Rektor prof.
Inomjon Madjidov

9.11.2022
sana


Ilmiy ishlar bo'yicha
direktor professor
Henning Lobin

O'zbekiston Milliy universiteti




Rektor prof.
Inomjon Madjidov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti



Rektor prof.
Ulug'bek Azizov

Samarqand davlat chet tillar instituti



sana

Rektor prof.
Inomjon Tuxtasinov

Buxoro davlat universiteti

sana



Farg'ona davlat universiteti

sana

Rektor prof.
Bahodirjon Sher-
muhammadov



Namangan davlat universiteti

sana

Rektor prof.
Sobithon Turgunov



uzr

Y. Yegorov